

UO'T:633.51+:631.

TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISH VA ALMASHLAB EKISH.

Uzoqova Iroda

Termiz davlat muxandislik va agrotexnologilar universiteti 1-kurs talabasi

Annatotsiya: *Tuproq unumdorligini oshirish va almashlab ekish qishloq xo'jaligida barqaror hosildorlikni taminlash, tuproq sifatini yaxshilash va ekologik barqarorlikni saqlashning muhim usullaridan biridir. Tuproq unumdorligini oshirishda organik va mineral o'g'itlardan foydalanish yashil o'g'itlar siderat ekinlar qo'llash, tuproqni chuqur yumshatish va meliorativ tadbirlarni amalga oshirish asosiy o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar: *Unumdorlik, almashlab ekish, mineral o'g'it, k organik o'g'it, kompost.*

KIRISH

Tuproqda uning unumdorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri uning tarkibidagi harakatchan oziqlar bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, tuproqning mexanik tarkibi, donadorligi, hajm massasi, g'ovakligi, nam sig'imi, suv o'tkazuvchanligi ham tuproq unumdorlikni belgilovchi muhim omillardir.

O'simlikning ildiz tizimi yaxshi rivojlanishi, modda almashinuvi tuproqdagi gaz almashinuvi mikrobiologik jarayonlarining maqbul o'tishi uchun tuproq nam sig'imi, suvni ushlab qolish qobiliyati umuman tuproqning to'rtta rejimi mo'tadil bo'lishligi to'grisida ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib brogan [1-16].

Tadqiqot o'tkazish uslublari. Tadqiqotda barcha kuzatuvlar, tahlillar va hisob-kitob ishlari «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari», tuproq tarkibidagi oziqa moddalar miqdorlari va agrofizikaviy tahlillar «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых раёнах» (1963) uslubiy qo'llamalari asosida olib borilgan.

Asosiy qism. Tuproq unumdorligini oshirish va almashlab ekish qishloq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lib hosildorlikni oshirish va tuproqni degradatsiyadan saqlashga yordam beradi. Tuproq unumdorligini oshirish usullari Organik o'g'itlardan foydalanish go'ng, compost, yashil o'g'itlar sideratlar tuproq tarkibini yaxshilaydi va mikroorganizmlarning ko'payishiga yordam beradi. Go'ng tuproqni yumshoq qiladi vaunda ozuqa moddalarini uzoq muddat saqlaydi.

Mineral o'g'itlarni qo'llash azot, fosfor va kaliy moddalari o'simliklarning o'sishiga va rivojlanishiga yordam beradi. Ularni o'lchovli miqdorda ishlatish kerak. Sideratlar ekish makkajo'xori, beda, soya kabi o'simliklarni ekib, ularni keyinchalik tuproqqa almashtirish orqali tuproqning organik tarkibi boyitiladi.

Tuproqning chuqur qatlamlarini yumshatish orqali havo almashinuvini yaxshilash va ildizlarning chuqurroq o'sishini ta'minlash mumkin. Tuproqni o'simlik qoldiqlari yoki maxsus materiallar bilan qoplash orqali namlikni saqlash, begona o'tlarning ko'payishini oldini olish va erroziya xavfini kamaytirish. Almashlab ekish sanoq o'rnida ekish tizimi tuproq unumdorligini tabiiy usulda saqlash va oshirishning samarali yo'lidir.

Tuproqning ozuqaviy balansini saqlash. Har xil o'simliklar turli ozuqaviy moddalarni iste'mol qiladi. Masalan, dukkakli ekinlar tuproqni azot bilan boyitadi, g'alla esa tuproqning boshqa resurslaridan foydalanadi. Bir xil ekinni bir joyda takror ekish zararkunandalarning ko'payishiga olib keladi. Ekinlarni almashtirish bu muammoni kamaytiradi. Tuproq tuzilmasini yaxshilash, turli xil ildiz tizimiga ega ekinlar tuproqni yumshatib, havo almashinuvini yaxshilaydi. G'alla –dukkakli –texnik ekinlar. Masalan: bug'doy-soya- paxta. Sabzavotlar almashinuv tizimi. Kartoshka – karam – sabzi. Tuproqni tiklovchi ekinlar makkajo'xori – beda –yeryong'oq. Tuproq unumdorligini saqlash uchun doimiy monitoring va o'g'itlar, suv texnik ishlov berish kabi omillarning muvofiqlashtirilishi muhimdir.

Almslab ekish esa bu jarayonni tabiiy va samarali qiladi. Almashlab ekish bu har yili bir xil dalada turli xil ekinlarni navbatma – navbat ekish usulidir. Bu usul nafaqat tuproqni tiklash balki yuqori hosildorlikka ershishga ham imkon beradi. sho'rlangan yoki kislotaligi yuqori bo'lgan tuproqlarda gipslash va ohaklash kabi usullar qo'llaniladi. Bu tuproqni unumdor qilishga yordam beradi.

Xulosa. Tuproq unumdorligini oshirish va almashlab ekish qishloq xo'jaligida barqarorlik va yuqori hosildorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega. Organik va mineral o'g'itlardan foydalanish tuproqni yaxshi parvarishlash erroziyaga qarshi choralar ko'rish va melioratsiya ishlari tuproq unumdorligini saqlashning asosiy vositalaridir. Almashlab ekish esa tuproqdagi ozuqa moddalarning tiklashini taminlab kasallik va zararkunandalarning kamayishiga, tuproq tuzilmasining yaxshilanishiga yordam beradi. Turli ekinlarni navbatma – navbat ekish orqali tuproqning tabiiy balansini saqlanadi, hosildorlik barqaror bo'ladi. Shunday qilib, tuproq unumdorligini oshirish va almashlab ekish agrotexnik tadbirlarning ajralmas qismi bo'lib, bu usullar nafaqat tuproqni himoya qiladi, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va miqdorini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdinazarov J., "The effect of various composts on the amount of salts in the soil" Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia. PP.13-16. 11.03.2024.

2. S.Boltayev, O.Boynazarov, F.Imamov, J.Abdinazarov, B.Turdiyev, D.Artikova. Tuproq unumdorligiga noan'anaviy orgona-mineral kompostlarni qo'llash samradorligi. Life sciences and agriculture. 2021 № 3 (7). 37-53 p.

3.S.M.Boltayev, N.Abdurahimov, J.Abdinazarov, B.Turdiyev. Surxondaryoning taqir tuproqlari sharoitida ingichka tolali g'o'zani parvarishlash agrotexnologiyasida qo'shimcha oziqlantirishning ahamiyati. Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda dozarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari nomli konferensiya ma'teriallari to'plami. T-2020. 105-107-bet.

4. Jamshid, A., & Otabek, K. (2024). THE EFFECT OF COMPOSTS ON THE YIELD OF FINE-FIBER COTTON.SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH,3(27), 239-242.

5. Jamshid, A., Saydullo, B., Otabek, P., Umida, M., & Uligberdi, K. (2022). TO STUDY THE EFFECT OF ADDITIONAL NUTRIENTS IN THE CARE OF FINE-FIBER COTTON

IN THE CONDITIONS OF BARREN SOILS OF SURKHANDARYA REGION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 156-158.

6. Boltaev, S. M., Abdinazarov, J., & Yusupov, A. (2022). SURXONDARYONING TAQIRSIMON TUPROQLARI SHAROITIDA INGICHKA TOLALI G' O 'ZANI PARVARISHLASHDA QO 'SHIMCHA OZIQUALARNING TA'SIRI O 'RGANISH. World scientific research journal, 5(1), 50-54.

7. . Abdinazarov. (2024). THE EFFECT OF VARIOUS COMPOSTS ON THE AMOUNT OF SALTS IN THE SOIL. Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 3(3), 13-16. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/view/4075>

8. Абдиназаров, Ж., & Болтаев, С. (2023). СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ТАҚИРСИМОН ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. AGROINNOVATSIYA, 1(1), 118-121.

9. Болтаев, С., Абдиназаров, Ж., & Ибрагимов, Х. (2023). СУРХОНДАРЁНИНГ ТАҚИР ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. Научный Фокус, 1(5), 193-196.

10. Jamshid, A., & Mahliyo, A. (2024). THE EFFECT OF APPLYING VARIOUS RATES OF COMPOST ON THE AMOUNT OF HARMFUL SALTS IN MODERATELY SALINE MEADOW-TAKIR SOILS. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(35), 277-281.

11. Абдиназаров, Ж., Паянов, О., & Каримова, К. (2024). ТАҚИРСИМОН ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ТУРЛИ КОМПОСТЛАР, ТУПРОҚНИ УМУМФИЗИКАВИЙ ХОССАЛАРИГА ТАЪСИРИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(35), 320-325.

12. РЎЗИЕВА, И., АБДИНАЗАРОВ, Ж., & РЎЗИМУРОДОВ, Д. ASSESSMENT OF THE QUALITY OF IRRIGATED GRASSLAND SOILS. UNIVERSITETI XABARLARI, 2020, [3/1] ISSN 2181-7324.

13. Болтаев, И. Б., Аскарлова, З. Ш., & Абдиназаров, Ж. А. (2015). СОДЕРЖАНИЕ ОРГАНИЧЕСКОГО УГЛЕРОДА И ВАЛОВОГО АЗОТА В ПОЧВЕ ПРИ ВНЕСЕНИИ НАВОЗА РАЗЛИЧНОЙ СТЕПЕНИ РАЗЛОЖЕНИЯ. In Актуальные вопросы развития аграрной науки в современных экономических условиях (pp. 146-147).

14. Boltayev, S. M., Abdurahimov, N., Abdinazarov, J., & Turdiyev, B. Surxondaryoning taqir tuproqlari sharoitida ingichka tolali g'o'zani parvarishlash agrotexnologiyasida qo'shimcha oziqlantirishning ahamiyati. Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda dozarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari nomli konferensiya ma'teriallari to'plami.

15, Jamshid, A., & Otabek, X. (2024). BENTONITLI VA FOSFORITLI KOMPOSTLARNING TUPROQDAGI ZARARLI TUZLAR MIQDORIGA TA'SIRI. Научный Фокус, 2(20), 1-3.

16, Абдиназаров, Ж., & Курбанов, А. (2024, December). ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3, No. 29, pp. 80-83).

17. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах. Ташкент, «Меҳнат» 1963. -С. 16-133.

18. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари. – Тошкент, 2007. Б.144-146.